



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING  
BUYRUG'I

**Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash  
uslubiyotini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan **buyuraman:**

1. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyoti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar 2-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan.
4. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Vazir**

Тошкент ш.  
2023 йил 30 октябрь,  
17-mh-son



**Tashkulov A. D.**

**Директор**

Тошкент ш.  
2023 йил 24 октябрь,

Келишилди:



**Burxanov A. E.**

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining  
2023-yil 30-oktabrdagi 17-mh-son buyrug'iga  
1-ILOVA

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash

USLUBIYOTI

Yo'nalish	Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	Tushunchasi	Misoli
Normalarning barqarorligi va huquqiy jihatdan muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar	So'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi	Normativ-huquqiy hujjat yoki uning foydasida (bundan buyon matnda normativ-huquqiy hujjat deb yuritiladi) qo'llanilayotgan so'zlar, tushunchalar va atamalar har xil ma'nolarni anglatishi yoki aniq bo'lmagan talqin qilishga imkoniyat yaratishi mumkin. Tushuncha va atamalar nafaqat bir normativ-huquqiy hujjatning o'zida, balki butun ijtimoiylikda bir xil qo'llanilishi lozim. Agar turli normativ-huquqiy hujjatlarda tushuncha va atamalarni bir xil qo'llash imkoniyati bo'lmasa, ularni farqlash aniq va oson bo'lishi kerak. Biri yoki ko'plikda so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi ham noaniqliklarga sabab bo'ladi. Shuningdek, olmoshni qo'llash orqali oldingi gapda berilgan shaxs, son, joy va hodisalarga nisbatan murojaat qilish, shuningdek "va/yoki" so'zlarini qo'llash orqali tuzilgan so'z birliklarining noto'g'ri qo'llanilishi noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun har bir so'z barcha uchun tushunarli ma'noni anglatishi yoki aniq huquqiy tavsifga ega bo'lishi lozim.	<b>1-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: yurisdiksiya fuqarolarning <b>turar joyiga</b> qarab belgilanadi. <b>Muammo:</b> " <b>turar joy</b> " sifatida shaxsning yashab turgan joyi nazarda tutilganmi yoki doimiy ro'yxatdan o'tgan joyimi? <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: <b>yurisdiksiya</b> fuqarolarning yashab turgan joyiga qarab belgilanadi. <b>2-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: vazirlik ushbu muddada ko'rsatilgan <b>murojaat turlarini</b> taqdim qilish <b>tartiblarini</b> belgilaydi. <b>Muammo:</b> ushbu holatda vazirlik <b>har bir murojaat turi uchun alohida tartib</b> belgilashi yoki <b>barcha murojaat turlari uchun yagona tartib</b> belgilashi lozimligi noaniq. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: vazirlik ushbu muddada ko'rsatilgan <b>murojaat turlarini</b> taqdim qilishning <b>tartibini</b> belgilaydi. <b>3-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: mansabdor shaxs va arizachi shartnoma shartlarini kelishishi zarur, <b>u</b> kelishuvini yozma shaklda tasdiqlashi lozim. <b>Muammo:</b> " <b>U</b> " deganda kim nazarda tutilganligi noaniq. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: mansabdor shaxs va arizachi shartnoma shartlarini kelishishi zarur, <b>mansabdor shaxs</b> kelishuvini yozma shaklda tasdiqlashi lozim. <b>4-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: <b>Tavakkalchilik</b> – mijozlar tomonidan jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmi miyallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni miyallashtirish maqsadida operatsiyalarni amalga oshirish tavakkalchiligi. <b>Muammo:</b> berilgan ta'rifda va so'zning ishlatilishi natijasida tavakkalchilik "jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish", "terrorizmi miyallashtirish" va "ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni miyallashtirish" operatsiyalarini nechitasi bir vaqtda amalga oshirilganda yuzaga kelishi noaniq bo'lib qolmoqda. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: <b>Tavakkalchilik</b> – mijozlar tomonidan jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmi miyallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni miyallashtirish operatsiyalaridan birini yoki bir nechtasini amalga oshirish.
	Noaniq va asossiz havoalarning qo'llanilishi	Bir normativ-huquqiy hujjatdagi yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatdagi normalarga havolalar aniq, mantiqiy izchil bo'lishi va normativ-huquqiy hujjati yoxud uning alohida qoidalarini ko'rsatishi kerak. Shuningdek, tegishli vakolatlar mavjud bo'lmaganda, qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarning qonun osti hujjatlari yordamida to'ldirilishi tor idoraviy yondashuv holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, huquqiy normaning chegarasini belgilash imkonini bermaydigan, xususan "va boshqalar", "va hokazo" kabi normalarning qo'llanilishi huquqni qo'llovchilarga asossiz ravishda ko'rib chiqish doirasining kengaytirish imkonini beradi. Shu sababdan, noaniq va asossiz havoalarni keltirilmagani hamda normativ-huquqiy hujjati qabul qilish tegishli davlat organlarining vakolat doirasida amalga oshirilishi zarur.	<b>1-misol:</b> davlat organi tomonidan ma'muriy jazo Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida belgilangan muddatlarda qo'llaniladi. <b>Muammo:</b> Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida muddatga oid norma belgilanmagan. <b>Yechim:</b> davlat organi tomonidan ma'muriy jazo Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36-moddasida belgilangan muddatlarda qo'llaniladi. <b>2-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: nazorat tadbiri rejali tekshirish davomida, ma'lum bir hududda (mintaqada) zararlanish o'chog'i aniqlanganda, mahsulot import qilindanda va boshqa holatlarda amalga oshiriladi. <b>Muammo:</b> nazorat tadbiri amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlarning aniq chegarasi belgilab berilmaganligi, xususan, "va boshqa holatlarda" iborasi qo'llanilishi natijasida tekshiruvchida asossiz ravishda, tekshirish obyekti yoki predmeti doirasiga taalluqli bo'lmagan nazorat-tekshiruvini amalga oshirish bilan bog'liq diskretion vakolatlar vujudga keladi. <b>Yechim:</b> nazorat tadbiri rejali tekshirish davomida, ma'lum bir hududda (mintaqada) zararlanish o'chog'i aniqlanganda, mahsulot import qilindanda amalga oshiriladi.
	Normativ-huquqiy hujjatlarda qararamchiliklarning mavjudligi	Normativ-huquqiy hujjatlarning normalari o'zaro muvofiq bo'lishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatlar normalarining bir biriga zid bo'lishi, huquqni qo'llashda turli xil tushunmovchiliklarning yuzaga kelishiga olib keladi.	<b>Misol:</b> Hukumat qarori bilan tasdiqlangan namunaviy hujjatlarga muvofiq tender takliflarini ochish tender e'lon qilining sanadan boshlab <b>10 – 15</b> kundan keyin bo'lib o'tadi. "Davlat xaridari to'g'risida"gi Qonunda ushbu muddat <b>30 – 45 kunning</b> tashkil qiladi. <b>Muammo:</b> Vazirlik Mahkamasining qarori va Qonunda ikki xil muddat belgilanganligi, ijrochilarning o'zlariga qulay bo'lgan muddatda ish yuritishiga hamda ziddiyatli huquqni qo'llash amaliyoti shakllanishiga olib keladi. <b>Yechim:</b> Vazirlik Mahkamasining qarorida belgilangan muddatlarni Qonundagi muvofiqlashtirish zarur.

Diskretion vakolatlarining kengligi	<p>Davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga (bundan buyon matnda davlat organlari deb yuritiladi) o'z ixtiyoriga ko'ra qarorlar qabul qilish, bir nechta turdagi qarorlarni qabul qilinishi talab va qarorlarni ijro etishning usullarini belgilash imkoniyatini asosiy ravishda berish oqibatida korruptsiyaviy holatlar vujudga kelishining xavfi yuqori hisoblanadi.</p> <p>Diskretion vakolatlarining kengligi asosan quyidagilarda ko'rinadi: qarorlarni qabul qilishning sharoitlari va asoslarining mavjud emasligi; davlat organlarga o'z ixtiyoriga ko'ra yuridik fakti baholashga hamda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tegishli harakatlarni amalga oshirishning tartibini mustaqil ravishda belgilashga yo'l qo'yish; "qaror qabul qilishi mumkin" shaklidagi qaror qabul qilish vakolatini berish; davlat organlariga ularning vakolatiga tegishli bo'lgan vazifa va vakolatlarining yuklatilishi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: litsenziyalovchi organ litsenziya talabgori hujjatlarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida <b>qaror qabul qilishi mumkin</b>.</p> <p><b>Muammo:</b> litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish uchun asoslar belgilanmagan, shuningdek litsenziyalovchi organga "qaror qabul qilishi mumkin" shaklidagi qaror qabul qilish vakolati berilgan.</p> <p><b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: litsenziyalovchi organ talabgoring hujjatlarini ko'rib chiqish natijasi litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>Litsenziya berish uchun quyidagilar asos bo'ladi: ... Litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi: ...</p>
Vakolatlarining noaniqligi	<p>Ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatning matnida vazifa yoki topshiriq ijrosi uchun mas'ul bo'lgan davlat organi aniqlash imkon bo'lmaydi.</p> <p>Bu holat davlat organi tomonidan o'zi manfaatdor bo'lmagan ma'lum bir harakat qilinaётganligini ko'rsatib, amalda esa ushbu harakatlarni bajarilmish uchun qilinadi. Shu bilan birga, topshiriq ijrosi uchun mas'ul etib bir nechta tashkilotlar belgilanadi. Ushbu tashkilotlarning vakolat doirasi aniq belgilanmaganligi oqibatida ular topshiriqning bajarilishini bir-biriga yuklashga olib kelishi mumkin. Natijada topshiriqning ijrosi yetarli darajada ta'minlanmaydi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: ushbu Qonunning ijrosi <b>tegishli vazirlik</b> tomonidan ta'minlanadi.</p> <p><b>Muammo:</b> mas'ul vazirlik aniqlash imkoniyati mavjud emasligi oqibatida davlat organlari o'zlarining manfaatlari nuqtai nazaridan harakat qilishlari mumkin.</p> <p><b>1-yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: ushbu Qonunning ijrosi "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida belgilangan davlat organi tomonidan ta'minlanadi.</p> <p><b>2-yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: ushbu Qonunning ijrosi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan ta'minlanadi.</p>
Davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi	<p>Davlat organiga boshqa davlat organi bilan takrorlanayotgan vakolatlar va vazifalar yuklatilishi topshiriq yetarli darajada ijro qilinmasligiga, vazifani ijro etish uchun ortiqcha resurslar sarflanishiga, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar oldida ortiqcha byurokratik to'xishlar vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjatga muvofiq <b>hokimliklarga</b> iste'molchilar huquqlari himoyasini amalga oshirish bo'yicha vazifalar yuklatilgan.</p> <p><b>Muammo:</b> mazkur vazifa Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining vazifalarini takrorlaydi, shuningdek hokimliklarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha funksiyasi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin.</p> <p><b>Yechim:</b> hokimliklarning iste'molchilar huquqlari himoyasini amalga oshirish bo'yicha vazifasini bekor qilish zarur.</p>
Davlat organi tomonidan o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi	<p>Normativ-huquqiy hujjatlarining mazkur hujjatlarini qabul qilish vakolatiga ega bo'lmagan davlat organlari tomonidan qabul qilinishi ushbu hujjatlarda ayrim shaxslarning manfaatlari mavjudligini ko'rsatadi.</p>	<p><b>Misol:</b> Vazirlar Mahkamasining qarori bilan muayyan bir tadbirkorlik subyektlari guruhi qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinishi belgilanmoqda.</p> <p><b>Muammo:</b> Soliq kodeksiga asosan soliq imniyozlari faqat ushbu Kodeks bilan berilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilangan soliq stavkasini kamaytirish holatlari bundan mustasno).</p> <p><b>Yechim:</b> Vazirlar Mahkamasining qarordan tadbirkorlik subyektlarini qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinishini nazarda tutuvchi normalar chiqarib tashlanishi zarur.</p>
Vazifani yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida zarur bo'lgan vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	<p>Davlat organi o'z vazifalarini to'laonli bajarish uchun barcha zarur vakolatlar va resurslarga, shu jumladan ularni bajarish uchun yetarli muddatga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.</p> <p>Shu sababdan, yuklatilayotgan vazifalarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan resurslar va mavjud imkoniyatlarining qiyosiy talifi natijasi bo'yicha mazkur vazifalar yuklatilishining maqsadga muvofiq.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarining faoliyatini ustidan nazorat qilish sohasida quyidagi vakolatlariga ega: yillik hisobotlarni ko'rib chiqish; tashkilot yig'inishlarida qatnashish; muddatdan tashqari yig'inishlarni o'tkazish.</p> <p><b>Muammo:</b> mazkur Agentlikka samarali nazorat amalga oshirish uchun yetarli vakolatlar berilmagan.</p> <p><b>Yechim:</b> Agentlikka yuqoridagilardan tashqari quyidagi vakolatlarini berish: davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari faoliyatiga oid har qanday ma'lumotni olish; davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarida maxsus audit o'tkazish; davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarining rahbarlarini tayinlash yoki vazifasidan ozod etish masalalari yuzasidan umumiy yig'inish kun tartibiga taklifni kiritish.</p> <p><b>2-misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: Bojxona qo'mitasi <b>uch oylik muddatda</b> BMTning Savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va elektron ish amaliyotlari bo'yicha markazi tomonidan ishlab chiqilgan "yagona darcha" mexanizmini yaratish bo'yicha tavsiyalar va yo'l-yo'riq tamoyillari mezonlariga javob beradigan "Yagona darcha" <b>bojxona axborot tizimini ishlab chiqish.</b></p> <p><b>Muammo:</b> mazkur axborot tizimini ishlab chiqish uchun <b>uch oylik muddat yetarli emas.</b> Xususan, axborot dasturini ishlab chiqish uchun: axborot tizimining pasporti va konsepsiyasi ishlab chiqiladi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishiladi (1-2 oy); axborot tizimining texnik topshiriq'i ishlab chiqiladi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishiladi (2-3 oy); barcha hujjatlar bo'yicha ijroviy xulosalar olingandan so'ng davlat xaridlari sohasidagi qonunchilikka muvofiq konkurs (tender) o'tkaziladi va g'olib bilan shartnoma tuziladi (1 oy). Shunga ko'ra, axborot tizimini ishlab chiqish ishlari kamida <b>4 oydan keyin boshlanadi.</b></p> <p><b>Yechim:</b> "Yagona darcha" bojxona axborot tizimini ishlab chiqish uchun muddatni yuqoridagi jarayonlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan muddatlarni inobatga olgan holda belgilash.</p>
O'z vaqtida tartibga solinmaslik	<p>Normativ-huquqiy hujjat bilan ma'lum bir sohani tartibga solish, shu jumladan tegishli normalarni amalga oshirish tartibi (mexanizmlari) va shakllarini belgilash vazifasi ma'lum bir davlat organiga yuklatilishi (bevosita ushbu normativ-huquqiy hujjatda belgilanmasdan) natijasida: ushbu norma uni amalga oshirish tartibi tasdiqlanmagan qadar ijro qilinmasligiga; tegishli munosabatlarni tartibga solishda davlat organi tomonidan tor idoraviy manfaatlarini ko'zlagan holda harakat qilinishiga olib kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: 2021-yil 1-yanvardan markazlashtirilgan mabxalar hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq loyihalar, ishlar va xizmatlar xarid faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi kapital qurilishda tanlov savdolarini o'tkazishning tartibi va shartlarini belgilaydi.</p> <p><b>Muammo:</b> Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan tartib va shartlar ishlab chiqilgan qadar mazkur normalning ijrosi ta'minlanmaydi.</p> <p>Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatda tanlov savdolarini o'tkazish tartibi va shartlari yuzasidan ko'rsatmalar nazarda tutilmagan bo'lib, bu vakolat ijro etuvchi organiga berilgan. Natijada tanlov savdolarini o'tkazishda korruptsiya holatlari vujudga kelishi mumkin.</p> <p><b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: kapital qurilishda tanlov savdolarini o'tkazish tartibi va shartlari quyidagilardan iborat: ...</p>
Manfaatlar to'qnashuvi	<p>Normativ-huquqiy hujjatda shaxsiy manfaatdorlik (bevosita yoki bilvosita) shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarini oldini olish choralarini ko'rilishi lozim.</p>	<p><b>Misol:</b> tovar qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdoriging besh ming baravaridan yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etgan taqdirda davlat xaridi eng yaxshi taklifi tanlash orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Bunda, shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.</p> <p><b>Muammo:</b> manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligi inobatga olinmagan.</p> <p><b>Yechim:</b> tovar qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdoriging besh ming baravaridan yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etgan taqdirda davlat xaridi eng yaxshi taklifi tanlash orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi shartlarni taklif qilgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.</p> <p>Bunda, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shaxslar tanlashda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi yoki xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxs bajariladigan vazifalardan chetlashtirilishi lozim.</p>
Atazliklarning asosiy ravishda belgilanishi	<p>Normativ-huquqiy hujjatda huquqiy munosabatlarning bir guruh subyektlariga nisbatan boshqalarni teng bo'lmagan, kamsituvchi ahvolda soluvchi afzalliklarning belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi zarur.</p>	<p><b>Misol:</b> ayrim davlat tizim korxonalar va nodavlat tashkilotlarga <b>litsenziya olmasdan faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan.</b></p> <p><b>Muammo:</b> mazkur toifadagi tashkilotlar tomonidan tegishli litsenziyani olmasdan faoliyatini amalga oshirishi bir qator salbiy holatlarga olib kelmoqda, xususan: raqobatda boshqa tadbirkorlarga nisbatan ustunlik; litsenziya talab va shartlarini cheklab o'tish imkoniyati.</p> <p><b>Yechim:</b> davlat umum korxonalar va nodavlat tashkilotlarning tegishli <b>litsenziyani olmasdan faoliyatini amalga oshirish huquqini bekor qilish.</b></p>
Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asosiy ravishda kechiktirish	<p>Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asosiy ravishda kechiktirish mazkur hujjatning qabul qilinishi maqsadlariga erishishni imkonini bermaydi. Bunday holatda davlat organlari tor idoraviy manfaatlarini ko'zlagan holda hujjatni amalga kiritilishi keyinga qoldirishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> tegishli normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan bo'lib, u <b>2020-yil 1-yanvardan</b> kuchga kirishi belgilangan.</p> <p>Mazkur normativ-huquqiy hujjatga ikki marta o'zgartirishlar kiritilib, ushbu hujjat <b>2021-yil 1-yanvar</b> va keyinchalik <b>2022-yil 1-iyuldan</b> kuchga kirishi belgilangan.</p> <p><b>Muammo:</b> mazkur hujjatning kuchga kirishi ikki marta, birinchisi 2021-yil 1-iyulga qadar qoldirilgan.</p> <p><b>Yechim:</b> davlat organi tomonidan normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish jarayonida hujjatning kuchga kirish sanasini aniq ta'biillar asosida belgilash va hujjatning kuchga kirish sanasini keyinga qoldirilmish choralarini ko'rish.</p>
Huquq va majburiyatning noamnatosti	<p>Davlat organlarida huquqlar mavjud bo'lganda majburiyatlarining mavjud emasligi ularning mansab vakolatlaridan chetga chiqishiga sharoit yaratadi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat bilan davlat organlariga tadbirkorlik subyektlarini joyiga chiqqan holda tekshirish va uni amalga oshirish bilan bog'liq huquqlar berilgan. Biroq, davlat organining tadbirkorlik subyektlari oldidagi ularning faoliyatini tekshirish bilan bog'liq majburiyatlar nazarda tutilmagan.</p> <p><b>Muammo:</b> davlat organining tadbirkorlik subyektni tekshirish jarayonidagi majburiyatlar mavjud emasligi, uning tegishli huquqlaridan chegarasiz foydalanishi orqali vakolat doirasidan chetga chiqishiga sharoit yaratib beradi.</p> <p><b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: davlat organi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish jarayonida quyidagi huquq va majburiyatlariga ega: ...</p>

Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar

<p>Ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi</p>	<p>Davlat organlari tomonidan tegishli harakatlarni bajarish tartibining mavjud emasligi natijasida ziddiyatli huquqni qo'llash amaliyoti shakllanadi, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga o'rtiqcha byurokratik to'rtqislar yaratilishi orqali korrupsiyaviy holatlar yuzaga keladi. Ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi asosan quyidagilarda ko'rinadi: davlat organining harakatlari va vakolatlarini amalga oshirish tartibiga solinmaganligi; vakolatlarini bajarish professional tartibining belgilanmaganligi; davlat organlari tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni bajarish uchun asoslarning mavjud emasligi yoki noaniqligi; qabul qilinayotgan qarorni asoslab berish majburiyatining mavjud emasligi; huquqiy bo'shliqlar mavjudligi; jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan huquqlarni amalga oshirishning aniq tartibiga solinmaganligi; amalga oshirishning aniq mexanizmi ega bo'lmagan normalarning mavjudligi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: ustav fondi (kapital)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqariladigan yuqori ikkvldi va monopoll mahsulotlarini <b>bir qismi</b> o'rnatilgan kvotalar bo'yicha faqat birja savdolari orqali eksport qilindi. <b>Muammo:</b> mahsulotlarning turlariga aniqlik kiritilmagan, shuningdek mahsulotlarning "<b>bir qismi</b>"ni shakllantirishning mexanizmi belgilanmagan. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: ustav fondi (kapital)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqariladigan ushbu normativ-huquqiy hujjatga ilovasida keltirilgan yuqori ikkvldi va monopoll mahsulotlarning 30% faqat birja savdolari orqali eksport qilindi.</p>
<p>Belgilangan qoidalaridagi istisomalarning asossiz ravishda qo'llanilishi</p>	<p>Tegishli sohada faoliyat yuritish uchun barcha ishrookchilarga yagona tartib va qoidalar o'rnatilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, ochiqlik (shaffoflik)ni hamda hammaga teng imkoniyat yaratish va raqobat muhitini ta'minlash maqsadida tegishli huquqni olishning tanlov (auksion) tartibidan foydalaniladi. Huquqni olishning aniq tartibi, shu jumladan tanlov (auksion) o'tkazish tartibi belgilangan taqdirda ham, muayyan shaxslar o'z manfaatlarini asosida ushbu huquqni to'g'riidan to'g'ri o'ziga harakat qilishlari mumkin. Shu sababdan, belgilangan qoidalardan chiqib chiqishi istisomalarni asossiz belgilanishi maqsadga muvofiq emas hisoblanadi.</p>	<p><b>Misol:</b> bir normativ-huquqiy hujjatta markazlashirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tender natijalari bo'yicha amalga oshirilishi, <b>qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holda bundan mustasno ekanligi nazarda tutilgan.</b> Boshqa normativ-huquqiy hujjat bilan ma'lum bir davlat organida <b>tender o'tkazmasdan</b> kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar <b>xaridini amalga oshirish ruxsat berilgan.</b> <b>Muammo:</b> mazkur holat sohada ochiqlik va raqobat muhitini ta'minlash imkonini bermaydi, shuningdek davlat karidlarida korrupsiyaviy holatlari hamda "kartel" kelishuvlarning vujudga kelishiga olib keladi. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: markazlashirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tender natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. <b>Tender o'tkazmasdan</b> kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar <b>xaridini amalga oshirish taqiqlansin.</b></p>
<p>O'rtiqcha va asossiz talablar belgilanishi</p>	<p>Normativ-huquqiy hujjatta jismoniy va yuridik shaxslarga noaniq, bajarilishi qiyin bo'lgan va (yoki) og'irlashtirilgan talablarni o'z ichiga olgan normalarning belgilanishi oqibatida jismoniy va yuridik shaxslar ushbu talablarni javobgarlikni bajarish masalasida choralarni izlashi mumkin. Shu sababdan, jismoniy va yuridik shaxslarning erkinligini cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan, ularning xatti-harakatlari va faoliyatini sahisbz va asossiz tartibga solinishida ifodalamladigan munosabatlarning haddan tashqari o'rtiqcha huquqni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi maqsadga muvofiq emas.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: avtomototransport vositalari haydovchilarni malakasini oshirish shartlari shug'ullanish uchun litsenziya shartlari quyidagilardan iborat: "kun o'quv jarayonini qamrab oladigan davlat talablariga muvofiq uch o'lchamli animatsiya effektleri va videokonentstiga ega avtomototransport vositalari haydovchilarning malakasini oshirish uchun alohida ishlab chiqilgan elektron o'quv-usubiy qo'llanmalar bilan akkreditatsiya muddatiga mukiy yoki boshqa ashyoviy huquq bilan ta'minlanganligi haqidagi hujjat; avtomototransport vositalarini boshqarayotgan shaxslar (haydovchilar)ning malakasini oshirishga qo'lladigan davlat talablariga muvofiq malaka oshirish kurslarida bilimlar o'zlashtirinishi aniqlash uchun animatsiya effektlariga ega yagona test dasturining akkreditatsiya muddatiga mukiy yoki boshqa ashyoviy huquq bilan ta'minlanganligi haqidagi hujjat." <b>Muammo:</b> amaliyotda aksaryat litsenziya talabgorlarida ushbu hujjatlarni taqdim etish imkoniyati mavjud emas. Shunga ko'ra, avtomototransport vositalari haydovchilarni malakasini oshirish faoliyatini litsenziyalash jarayoni juda murakkab, litsenziya talab va shartlari yuqori hamda mazkur faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini qisqartirishga, sohada yagona xizmat ko'rsatuvchi monopoll tashkilot statusini saqlab qolishga qaratilgan. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjatta o'rnatilgan litsenziya talab va shartlardagi bajarilishi qiyin bo'lgan va og'irlashtirilgan talablarni, shuningdek raqobatin cheklovchi qoidalarini chiqarib tashlash zarur.</p>
<p>Vaqt chegaralarining noaniqligi</p>	<p>Muddatlarning mavjud emasligi yoki noaniqligi, asosi sabablarisiz belgilangan muddatni cho'zish yoki qisqartirish imkoniyatini nazarda tutish korrupsiya holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Vaqt chegaralari aniq belgilanmasligi oqibatida davlat xizmatchilari ma'lum bir harakati amalga oshirishni o'z manfaatlarini yo'lida kechiktirish yoki tezlashtirish xavfi yuzaga keladi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: davlat ijrochisi iro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda iro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun iro ishi yuritish to'g'atilgan kundan c'tiboran ko'pi bilan o'z besh kun muddat belgilaydi. <b>Muammo:</b> ushbu holatda davlat ijrochisi iro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish uchun muddatni o'z manfaatlaridan kelib chiqib belgilashi mumkin. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjatta iro hujjatidagi talablarni ixtiyoriy ravishda bajarish muddatini aniq belgilash zarur.</p>
<p>To'lovlar miqdorlarining noaniqligi</p>	<p>Korrupsiyani oldini olish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan davlat bo'lgan, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar miqdorlari aniq belgilanishi zarur. Mazkur to'lovlar miqdorlari qat'iyl belgilanmaganligi natijasida davlat organlari o'z manfaatlarini ko'zlagan holda to'lovlar miqdorini kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> vakolati organ guvohnomani ko'pi bilan 15 kunda bazaviy hisoblash miqdorining (bundan buyon BHM) deb belgilaydi. 1 korrupsiyani o'z ichiga olgan 5 baravariga ko'lgan miqdordagi davlat boji to'langandan so'ng taqdim etadi. <b>Muammo:</b> davlat boji miqdori aniq ko'rsatib o'tilmaganligi natijasida mansabdor shaxs ushbu miqdorni o'z xiyoriga ko'ra belgilaydi, bu esa korrupsiya holatlarini vujudga keltirishi mumkin. <b>Yechim:</b> vakolati organ guvohnomani quyidagi muddatlarda to'lovlar taqdim etadi: 15 kun ichida — BHMning 1 baravari; 5 kun ichida — BHMning 3 baravari; 24 soat ichida — BHMning 5 baravari miqdordagi davlat boji to'langanda.</p>
<p>Sanksiyalarning noimunosibligi</p>	<p>Noaniq va keng talqin qilinishi mumkin bo'lgan sanksiyalar davlat organlariga jismoniy va yuridik shaxslardan o'z manfaatlarini ko'zlagan holda (pora evaziga) sanksiya darajasini belgilash imkoniyatini beradi. Shuningdek, sanksiyalarning darajasi tegishli huquqbuzarlikning ijtimoiy ahamiyati va oqibatlar bilan mutanosib bo'lishi lozim.</p>	<p><b>Misol:</b> haydovchilarning shovqin darajasi belgilangan normalardan o'rtiq bo'lgan transport vositalarini boshqarishi. — bazaviy hisoblash miqdoringiz 5 baravaridan 25 baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi. <b>Muammo:</b> birinchidan, jarima miqdori huquqbuzarlikning ijtimoiy ahamiyati va oqibatlariga nisbatan juda yuqori, ikkinchidan, sanksiyaning minimal va maksimal miqdorlari o'rtasidagi farq ularni tayinlash mezonlari mavjud bo'lmay turib sezilarli darajada yuqori qilib belgilangan. Mazkur holat mansabdor shaxsiga asossiz ravishda o'z ixtiyoriga ko'ra sanksiya miqdorini belgilash huquqini beradi. <b>Yechim:</b> jarima miqdorini huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda belgilash.</p>
<p>Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag'lari hamda budgetdan tashqari mablag'lari sarflanishining aniq va shaffof tartib-taomillari mavjud emasligi</p>	<p>Aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi davlat organlari va idoralari rahbarlariga hamda mas'ul shaxslarga davlat budgeti va budgetdan tashqari mablag'larni o'z manfaatlarini yoki uchunchi shaxslarning manfaatlaridan kelib chiqib sarflashiga imkon yaratib, ushbu mablag'lardan samarasiz foydalanishiga olib kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: Huddudiy "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari: Yoshlar ishleri agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan kalendar rejunda belgilangan mahalla, sektor, tuman (shahar) va hudud darajasidagi loyihalar, yoshlar festivalari, forumlar, tanlovlar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarini moliyalashtirishga; mahalladagi yoshlar yetakchilari uchun ajratilgan xizmat konalarini moddiy-texnik jihozlar (mebel, planshet, kompyuter to'plami, aloqa, internet va boshqalar) bilan ta'minlashga; qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan boshqa sarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi. <b>Muammo:</b> huddudiy "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'laring qaysi maqsadlarda sarflanishi mumkinligining aniq belgilanmasdan, boshqa xarajalar shaklida umumiy tushnalardan foydalanilgan. Ushbu holat huddudiy "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lardan samarasiz foydalanilishiga olib kelishi mumkin. <b>Yechim:</b> huddudiy "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'laring qaysi maqsadlar uchun sarflanishi mumkinligini aniq belgilash.</p>
<p>Soliqlar va yig'imlarni hisoblash hamda undirish tartib-taomillarning murakkabligi yoki noaniqligi</p>	<p>Soliqlar va yig'imlarni hisoblash va undirish tartibining murakkabligi huquqni qo'llash amaliyotida soliqlar va yig'imlarni hisoblashda turli yondashuvlarni yuzaga keltirishi hamda soliq to'lovchilardan o'rtiqcha miqdorda soliq undirilishiga yoki soliq to'lash jarayonida byurokratik to'siqlar vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda soliqni undirish tugatildi. Soliqni undirishni tugatishni mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi. <b>Muammo:</b> soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda soliqni undirish qaysi muddatdan boshlab tugatishni hamda mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organi tomonidan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish tartibi aniq belgilanmagan. <b>Yechim:</b> soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan kundan c'tiboran tugatilishini hamda mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi organi tomonidan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik yoki buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish tartibini belgilash.</p>
<p>Davlat korxonalarida hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi</p>	<p>Davlat xaridlarini tashkilot etish va o'tkazishda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi davlat xaridlari sohasida eng yaxshi taklifni tanlab olishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga, bunday xaridlar shaxsiy manfaatdori asosida amalga oshirilishiga, ushbu jarayonda korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishiga, davlat budgeti mablag'lardan samarasiz foydalanilishiga olib kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> davlat korxonalarida hamda o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari ishrookchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlariga taalluqli bo'lgan takliflari quyidagi me'zmlar orqali baholamadi hamda eng yaxshi taklif egasi aniqlanadi: naxr; yetkazib berish bazisi; yetkazib berish muddatlari; tavsifnomalar va sifat ko'rsatkichlari; ekspluatatsiya qilish (foydalanish) muddati; to'lov va kafolatlari shartlari; muayyan davrdagi ekspluatatsiya qilishga, shu jumladan foydalanish va ta'mirlashga doir xarajalar. <b>Muammo:</b> davlat xaridlari ishrookchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlariga taalluqli bo'lgan takliflarini baholash mezonlarining har biriga ball berish va eng yuqori ball to'plagan ishrookchini eng yaxshi taklif egasi deb topish tizimini joriy etish. <b>Yechim:</b> davlat xaridlari ishrookchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha davlat xaridlariga taalluqli bo'lgan takliflarini baholash mezonlarining har biriga ball berish va eng yuqori ball to'plagan ishrookchini eng yaxshi taklif egasi deb topish tizimini joriy etish.</p>
<p>Huquq va imyozlar beruvchi hamda ma'muriy tartib-taomillarni belgilaydigan tanlov (auksion) tartib-taomillarning kamaytirishi, ushbu jarayonda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi hamda korrupsiyaviy harakatlari sodir etilishiga imkoniyat yaratadi.</p>	<p>Tanlov (auksion) tartib-taomillaridan bo'yim tovlash imkoniyatini beruvchi normalarning mavjudligi muayyan huquq va intiyozlarni munosib jismoniy yoki yuridik shaxsga taqdim etish imkoniyatini kamaytiradi, ushbu jarayonda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi hamda korrupsiyaviy harakatlari sodir etilishiga imkoniyat yaratadi.</p>	<p><b>Misol:</b> bitimlar davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq tuziladi. <b>Muammo:</b> alohida holatlar doirasida aniqlashtirilmaganligi, investorlarni strategik salohiyatni deb topish mezonlarining mavjud emasligi tufayli ushbu tartibni qo'llash masalasi mansabdor shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatdori asosida har bir holatda alohida ko'rib chiqilishiga imkon yaratadi. <b>Yechim:</b> alohida holatlar doirasida aniqlashtirish, investorlarni strategik salohiyatni deb topish mezonlarini belgilash yoki ushbu normani chiqarib tashlash.</p>
<p>Tadbirlarni amalga oshirish usullarining murakkabligi va ularni moliyalashtirish manbalarining noaniqligi</p>	<p>Normativ-huquqiy hujjatta davlat organiga moliyalashtirish manbasini noaniq bo'lgan chora-tadbirni amalga oshirishning yuklatilishi natijasida ushbu chora-tadbir irosi ta'minlanmasdan qo'shib yoki fuqarolar vujud tadbirkorlik subyektlarini ma'lum manfaat yo'lida noqonuniy hohiyatka jalb etishga olib kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjatta 2023-yil 1-oyabr dan 2024-yil 31-dekabr qadar joylashtirish bo'yicha xizmatlar (mehmonxona xizmatlari) narxining 10 foizi miqdorida joylashtirish vositalarini subsidiyalash bo'yicha qo'shimcha ko'mak ko'rsatilishi belgilangan. <b>Muammo:</b> subsidiyalash manbasi, tartibi va uni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan tashkilot ko'rsatilgan. <b>Yechim:</b> Turizm qo'mitasi Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda 2023-yil 1-oyabr dan 2024-yil 31-dekabr qadar joylashtirish bo'yicha xizmatlar (mehmonxona xizmatlari) narxining 10 foizi miqdorida joylashtirish vositalarini subsidiyalash bo'yicha qo'shimcha ko'mak ko'rsatilishi ta'minlash.</p>

<p>Nazorat-tekshirish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar</p>	<p><b>Tekshirish va taftish o'tkazish tartibining mavjud emasligi</b></p>	<p>Tekshirish va taftish o'tkazish tartibining mavjud emasligi natijasida huquqni qo'llash amaliyotida ziddiyatlar vujudga kelishi, huquqni qo'llovchi tomonidan tekshirish va o'rganishlar turli shakllarda o'tkazilishi, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ortiqcha byurokratik to'siqlar yaratilishi orqali korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> vakolati organ tekshirish davomida aniqlangan xato va kamchiliklar bartaraf etilishi ustidan <b>nazorat tartibida tekshirish o'tkazishi mumkin.</b> Nazorat tartibida tekshirish vakolati organ farmoyishi asosida o'tkaziladi. <b>Muammo:</b> vakolati organ tomonidan nazorat tartibida o'tkaziladigan tekshiruv tartibi mavju emas. Xususan, nazorat tartibida o'tkaziladigan tekshiruv qancha muddat davomida amalga oshirilishi, amalga oshirish shakli (masofaviy, joyiga chiqqan holda) belgilanmagan. <b>Yechim:</b> vakolati organ tomonidan nazorat tartibida tekshiruv o'tkazish tartibini belgilash.</p>
	<p><b>Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi</b></p>	<p>Davlat organlarning javobgarligi to'g'risidagi normalarning, shuningdek ularning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi mansabdor shaxslarga o'z vakolatlarini suiste'mol qilishiga sharoit yaratadi.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjatta ichki auditor sertifikatini olish yoki uning amal qilish muddatini uzaytirish tartibi belgilanmagan. <b>Muammo:</b> ichki auditor sertifikatini olishga yoki uning amal qilish muddatini uzaytirishga da'vogar jismoniy shaxs (bundan buyon matnda talabgor deb yuritiladi) ichki auditor sertifikatini olish uchun o'tkaziladigan malaka imtihoni natijalaridan hamda sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish va qayta rasmiylashtirish vakolati organ tomonidan rad etilganligidan norozi bo'lganda shikoyat qilish tartibi belgilanmagan. <b>Yechim:</b> talabgor ichki auditor sertifikatini olish uchun o'tkaziladigan malaka imtihoni natijalaridan hamda sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish va qayta rasmiylashtirish vakolati organ tomonidan rad etilganligidan norozi bo'lganda shikoyat qilish tartibini belgilash.</p>
	<p><b>Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar</b></p>	<p>Jamoatchilik nazorati shaffoflik va qonuniylikni ta'minlashning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlat organlarining faoliyati to'g'risidagi hamda ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning so'rovlari yuzasidan ma'lumotlarni taqdim qilish tartibi to'g'risidagi axborotni (bundan qonun bilan qo'riqlanadigan sirni tashkil etuvchi axborotlar mustasno) oshkor etishni nazarda tutuvchi normalar belgilanishi kerak.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjat: tanlov savdolarining g'olibini aniqlash hududiy tanlov komissiyasining yopiq majlisida o'tkaziladi. Ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborot oshkor qilinmaydi, qonunchilik nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. <b>Muammo:</b> bu normalar shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashga to'siq qiladi hamda tanlov savdolarining g'olibini aniqlashda korrupsiyaviy xavf-talarning vujudga kelishiga sharoit yaratadi. <b>Yechim:</b> tanlov savdolarining g'olibini komissiyaning ochiq majlisida aniqlash, ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborotlarni ma'buliy ravishda oshkor qilish tartibini belgilash.</p>
	<p><b>Moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo'llash hamda undirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarda aniq va shaffof tartib-taomillarning mavjud emasligi</b></p>	<p>Davlat organlari tomonidan moliyaviy va boshqa sanksiyalarni qo'llash hamda undirish bo'yicha aniq belgilangan hamda shaffof tartibning mavjud emasligi natijasida huquqni qo'llash amaliyotida ziddiyatlar hamda huquqni qo'llovchilar tomonidan mavjud huquq normalari turli shaklda qo'llanilishi natijasida korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik – bazaviy hisoblash miqdorining (bundan buyon matnda BHM deb yuritiladi) 2 baravaridan 8 baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. <b>Muammo:</b> soliq hisobotini taqdim etmaganlik uchun jarimaning eng kam va eng yuqori miqdorlari belgilangan, biroq, jarima qo'llashning mezonlari aniq belgilanmagan. Mazkur holat huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxsga o'z ixtiyoriga ko'ra jarima miqdorini belgilash huquqini beradi. Natijada jarima miqdorini belgilashda korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelishi mumkin. <b>1-yechim:</b> jarima miqdorini qat'iy belgilash (misol uchun, BHMning 2 baravari miqdorida jarima solinishini belgilash); <b>2-yechim:</b> jarima tayinlash mezonlarini aniq belgilash. Xususan, quyidagi tartibni joriy etish: soliq hisoboti belgilangan muddatlardan 2 ish kunigacha kechikib taqdim etilganda — BHMning 2 baravari; 2 ish kumidan 4 ish kunigacha kechikib taqdim etilganda — BHMning 4 baravari; 4 ish kumidan 6 ish kunigacha kechikib taqdim etilganda — BHMning 6 baravari; 6 ish kumidan kechikib taqdim etilganda — BHMning 8 baravari miqdorida jarima belgilash.</p>
	<p><b>Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilish shakllari va turlarining mavjud emasligi</b></p>	<p>Normativ-huquqiy hujjatta davlat organlari tomonidan muayyan harakatlarni amalga oshirish tartibi belgilangan bo'lib, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa, davlat organi ushbu faoliyatini hujjatta belgilangan tartibga rioya qilmasdan o'z manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirishi mumkin.</p>	<p><b>Misol:</b> normativ-huquqiy hujjatta tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalari elektron onlayn-auksion orqali doimiy foydalanishga berilishi belgilangan. <b>Muammo:</b> davlat organlari tomonidan yer uchastkalari berish tartib-taomillariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish tartibi belgilanmagan. <b>Yechim:</b> normativ-huquqiy hujjat: davlat xizmatlari markazlari, prokuratura organlari va adliya organlari davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan yer uchastkalari elektron onlayn-auksion orqali berish tartibiga so'zsiz rioya etilishi bo'yicha tizimli nazorat va monitoringni amalga oshiradi. Tizimli nazorat va monitoring yer uchastkasi materiallarini tayyorlash jarayoniga aralashmasdan, "YERELEKTRON" AAT orqali amalga oshiriladi. ...</p>

## **O'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar**

### **RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 24-fevraldagi 2-mh-son "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3287, 2021-yil 24-fevral) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021-y., 10/21/3287/0153-son).

2. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 27-yanvardagi 1-mh-son "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i (ro'yxat raqami 3287-1, 2022-yil 27-yanvar) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2022-y., 10/22/3287-1/0075-son).

3. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 14-oktabrdagi 23-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3392, 2022-yil 17-oktabr) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2022-y., 10/22/3392/0951-son) bilan tasdiqlangan Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchanning 16-bandi.